

## Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar–iyun, dastlabki ma'lumot)

2021- yil yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchilarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud) **2657,6** ming so‘mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **12,1** % ga oshdi.

## Yuridik shaxslarda xodimlar soni va mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad

(2021- yil yanvar-iyun; qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	Korxonalar va tashkilotlar soni, birlik	Xodimlar soni, kishi	Mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad, mln.so‘m	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m
<b>Respublika bo‘yicha - jami</b>	<b>3693</b>	<b>150 842</b>	<b>2 405 232,2</b>	<b>2657,6</b>
shu jumladan:				
Sanoat	35	14 183	314 595,5	7393,7
Qurilish	10	2 218	35 914,7	2698,7
Savdo	14	1 715	24 847,1	2414,7
Tashish va saqlash	12	8 464	203 617,8	4 009,5
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	6	78	841,3	1 797,7
Axborot va aloqa	37	1 182	19 012,2	2 680,8
Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	78	2 916	92 927,6	5 311,4
Ta‘lim	1658	72 155	955 221,7	2 206,4
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	94	24 696	334 950,1	2 260,5
San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	163	2 545	31 472,8	2 061,1
Boshqa faoliyat turlari	1586	20690	327 268,3	2636,3



## Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-iyun, kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



### Maktabgacha ta'lim sohasi



1197,5 ming so'm

### Umumiy o'rta ta'lim sohasi




2223,6 ming so'm

### O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi



2 206,4 ming so'm

### O'rta maxsus kasb-hunar ta'lim sohasi



1770,3 ming so'm

### Oliy ta'lim sohasi



4288,5 ming so'm

Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2206,4** ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **13,4** % ga oshgan.




## Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-iyun, kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



### O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda




Ta'lim sohasi bo'yicha qator hududlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Respublikadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlar Nukus shahri - **127,8 %**, Kegeyli tumani - **103,9 %**, Ellikqal'a tumani - **102,5 %** va Chimboy tumani - **101,3 %** hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, 12 ta hududda ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublika o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.

Respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Mo'ynoq tumani - **80,3 %**, Nukus tumani - **80,3 %**, Bo'zatov tumani - **78,8 %** hamda Qorao'zak tumani - **75,7 %** hissasiga to'g'ri kelgan.


### O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda





## Sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-iyun, kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Sanoat iqtisodiy faoliyat turida **35** ta korxonada **14183** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **9,4** %)ni xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **314,6** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi **13,1** %)ni tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **7393,7** ming so'mni tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan **2,0** barobarga o'sdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **13583,4** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **183,7** %) va Taxiatioh tumanida **10637,1** ming so'mni (**143,9** %) tashkil etgan bo'lsa, Beruniy tumanida **2097,3** ming so'mni (**28,4** %), Chimboy tumanida **2308,4** ming so'mni (**31,2** %), Kegeyli tumanida **2327,5** ming so'mni (**31,5** %) va Qorao'zak tumanida **2576,2** ming so'mni (**34,8** %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.




## Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-iyun, kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



O'rtacha oylik ish haqi,  
ming so'mda




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Taxtakopir tumani - **117,5 %**, Xo'jayli tumani - **111,8 %**, Chimboy tumani - **108,8 %** hamda Qonliko'l tumani - **104,6 %** hissasiga to'g'ri kelmoqda

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi respublikaning 11 ta tumanida respublikadagi o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Xususan, ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Bo'zatov tumani - **75,8 %**, Taxiatosh tumani - **88,4 %**, Shumanay tumani - **88,8 %** hamda Ellikqal'a tumani - **90,3 %** hissasiga to'g'ri kelgan.


O'rtacha oylik ish haqi,  
ming so'mda





## Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-iyun, kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)




Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turida **78** ta muassasada **2916** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,9 %)ni xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **92,9** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 3,9% ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **5311,4** ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **9,1** %ga o'sdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'niy o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **5975,6** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **112,5%**) va Mo'ynoq tumanida **5445,0** ming so'mni (**102,5%**) tashkil etgan bo'lsa, Taxiatioh tumanida **3482,7** ming so'mni (**65,6%**), Qorao'zak tumanida **4131,3** ming so'mni (**77,8%**) va Xo'jayli tumanida **4190,7** ming so'mni (**78,9%**) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



## O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

(2021- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, % da)




Respublika bo'yicha 2021- yil yanvar-iyun oylarida 2020- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati sanoat sohasida **2,0** barobarga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda **13,8** % ga, tashish va saqlash sohasida **13,6** % ga, ta'lim sohasida **13,4** % ga, savdoda **12,7** % ga, qurilish sohasida **12,6** % ga, axborot va aloqada **11,5** % ga hamda bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatida **9,1** % ga o'sganligi kuzatish mumkin.



## Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-iyun, respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **3375,8** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **127,0** %), Qo'ng'iro't tumanida **3225,0** ming so'mni (**121,4** %) va Taxiatosh tumanida **3120,5** ming so'mni (**117,4** %) tashkil etgan bo'lsa, Bo'zatov tumanida **1826,6** ming so'mni (**68,7** %), Qorao'zak tumanida **1852,2** ming so'mni (**69,7** %) va Mo'ynoq tumanida **1983,6** ming so'mni (**74,6** %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha  
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(yanvar-iyun; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik  
subyektlaridan tashqari, ming so'm)

	2020- yil	2021- yil	O'sish sur'ati, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>2370,7</b>	<b>2657,6</b>	<b>112,1</b>
Nukus shahri	3001,9	3375,8	112,5
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	1788,7	2000,1	111,8
Beruniy	1783,5	2036,0	114,2
Bo'zatov	1791,4	1826,6	102,0
Qorao'zak	1899,7	1852,2	97,5
Kegeyli	1986,3	2250,6	113,3
Qo'ng'iro't	2859,0	3225,0	112,8
Qonliko'l	1777,4	2055,8	115,7
Mo'ynoq	1872,5	1983,6	105,9
Nukus	2290,4	2282,9	99,7
Taxiatosh	2363,0	3120,5	132,1
Taxtako'pir	1795,4	2161,8	120,4
To'rtko'l	1949,0	2214,6	113,6
Xo'jayli	2014,5	2236,5	111,0
Chimboy	1955,4	2231,2	114,1
Shumanay	2186,4	2198,0	100,5
Ellikqal'a	2011,0	2249,8	111,9



## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2020- yildagi "O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4938-sonli Qaroriga muvofiq, 2021- yilning 1- fevralidan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori **747 300** so'mni tashkil etadi.

Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

***Qoraqalpog'iston Respublikasi  
statistika boshqarmasining  
Demografiya va mehnat statistikasi  
bo'limi  
Tel: (61) 224-92-17 (61) 222-76-57***